



Ismailov B.B – “Ma’mun-universiteti”

NTM o‘qituvchisi

Qadimgi davr madaniy-xo‘jalik markazlarining vujudga kelishi va rivojlanishi bosqichlariga bo‘lgan omillar.

O‘rta Osiyoning Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Norin, Qoradaryo va Chirchiq, Murg‘ob, Tajan, Atrex daryolari mazkur materik yuzasining rang- barangligini hosil qilgan. Yuqorida sanab o‘tilgan daryolardan Amudaryo faolyati O‘rta Osiyo gidrodini miqyosida muhim o‘rin egallagan. Amudaryo Hindiqushning shimolida 4000 metr balandlikni qamrab olgan muzlikdan boshlangan. Unga Pomir daryo qo‘shilgan joygacha, u Vohandaryo deb atalgan.

U Amudaryoning ikkinchi irmog‘i hisoblangan. Pomirdaryodan Vaxsh irmog‘i kelib qo‘shilgan joygacha Amudaryo Panj deb atalgan. U beshta irmoqdan, ya’ni Vohandaryo, Pomirdaryo, Gunt, Barshongdaryo va Vang daryolaridir⁷³.

Amudaryo Afg‘onistondan Ko‘kcha va Qunduz daryolari suvlari kelib tushadi. O‘zbekiston janubida esa Surxon, Tojikistondan esa Kofirnigon daryolari o‘z suvlarini olib keladi. Termiz yaqinidan oqqan Amudaryo shimoliy-g‘arbiy tomon siljigan holda oqib, Unguzi Qoraqumdan keyin Turon past tekisligini ikkiga ajratib shimol tomon oqa boshlaydi. O‘rta Osiyo daryolari Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonning “tentirab” oqishi tasvirlangan. Daryolarning qadimgi holati va hozirgi yo‘nalishiga nazar solsak Amudaryoning daydib oqishi kuchli bo‘lgan Sirdaryoga qaraganda.

Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Murg‘ob, Tajan, Atrek daryolari suvlari tarkibidagi joy qatlamlari mavjud bo‘lgan taqirga cho‘ka boshlagan. Shu tariqa O‘rta Osiyoning yer qatlami vujudga kelgan. Xo‘sh, O‘rta Osiyo daryolari faoliyati boshlanmasdan avval mazkur materik qanday xususiyatga ega bo‘lgan degan masala hosil bo‘lishi tabiiy hol. Geologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, poleozoy geologik davrida O‘rta Osiyo mintaqasini buyuk Tetis dengizi qamrab olganligi aniqlangan.

Mezazoy davrida Tetis dengizi sharqiy tomon qaytishi keng pasttekislikni vujudga keltirgan. Neogenning miosen bosqichida (taxminan 12-5 million yillar avval) O‘rta Osiyo

⁷³ Коржевенски Н.Я. Физика-географический очерк Средней Азии. Т. ., 1925, - В. 65.



tarixiy-geografik mintaqalari pasttekisligi yuzasini dasht geografik xususiyat hosil bo'lgan va ushbu sharoitga mos antropogen landshaft shakllangan.

Tadqiqotchilar A.V.Vinogradov, M.A.Itina, A.S.Kes, E.D.Mamedov tadqiqotlarida 4-3 million yillar avval Orol-Sariqamish botiqligi o'rnida keng pasttekislik tarkib topganligini qayd qilganlar⁷⁴. Orol botig'idan Ungizi Qoraqumgacha bo'lgan bepoyon sarhadda Xorazm ko'li mavjud bo'lgan. Amudaryo dinamikasi natijalaridan kelib chiqib, Quyi Amudaryo, Sariqamish havzalari pasttekisligi tabiiy sharoit, geografik muhit va antropogen landshaft vujudga kelishi va shakllanishini quyi, o'rta va yuqori golosen geologik davrlarga ajratish mumkin. I.I.Gerasimov tadqiqotlari natijalariga ko'ra, yer geologik davrining quyi va o'rta to'rtlamchi davr boshlarida Amudaryo, Chorjo'y yaqinidan janubi-g'arbiy tomon yo'nalgan⁷⁵. Tadqiqotchilar I.I.Gerasimov, K.K.Markov tadqiqotlari natijalaridan ma'lumki, muzlik davrigacha Orol, Sariqamish botiqlari quriqlik bo'lgan⁷⁶.

Xorazm ekspeditsiyasi hodimlari tomonidan olib borilgan geologik izlanishlari natijalariga ko'ra, mazkur geologik davrda Amudaryo yo'nalishi tez-tez o'zgarib turgan. Uning suvi Kopetdog'ning shimolidan harakat qilib, Ungiz Qoraqumi va uning atroflarini shakllantirgan⁷⁷. Ekspeditsiya tadqiqotchilari tomonidan tuzilgan xaritasiga nazar solsak, pasttekislik yuzasi tasviri hozirgi holatidan birmuncha farqlanishini kuzatish mumkin⁷⁸. Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon suvlari Xorazm ko'liga muntazam kelib turgan. To'rtlamchi geologik davrida Sariqamishbo'yi, Oqchadaryo va Orolbo'yi havzalari tarkib topish jarayoni yakun topgan⁷⁹.

O'zbek geograf olimi P.Baratov tadqiqotlari natijalariga ko'ra, Quyi Amudaryo, Sariqamish hududlari yuzasi rang-barangligi Amudaryo suvi dinamikasi asosida vujudga kelgan. To'rtlamchi davr boshlarida Hindiqush tog'i shimoliy yon bag'rida 4950 metr

⁷⁴ Виноградов А.В, М.А. Итина, А.С. Кес, Мамедов Е.Д. полеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии // Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене// М, "Наука" , 1974, - С. 290-291.

⁷⁵ Герасимов И.И. Основные черты развития современной Турана // ТИГ. Вып. 25//. 1937. - С. 63.

⁷⁶ Герасимов И.И., Марков. К.К. Четвертичная геология. М, 1939, - С. 270-271.

⁷⁷ Низовья Амударьи, Сарикамыш, Узбой // История формирования и заселения // М, МХЭ, Вып, №3, 1960, -С. 16

⁷⁸ O`sha asar. - С. 18, ris. 2, sxema-1.

⁷⁹ Низовья Амударьи, Сарикамыш, Узбой // История и заселения // МХЭ, Вып №3//. 1960, - С. 17, 344.



balandlikdagi Vrevskiy muzligidan boshlangan jilg'alar suvini qamrab olib, Surxon pasttekisligida insonyatga hayotbaxsh etadigan yotqiziqlarni tashlash faolyati boshlangan. Amudaryo suvi Kelifdan g'arbiy tomonga burulib, Turkmanistonning Karki shahridan keyin Ungizi Qoraqum shimolidagi Kelkor va Aktam orqali Zarafshon daryosining beshta irmoqlari va Qashqadaryo, G'uzordaryolar suvlari bilan qo'shilgan holda, uzunligi 550 kilometrli yo'lak orqali Kaspiy dengiziga yo'nalganligi natijasida Ungizi Qoraqum janubi-g'arbiy pasttekisligini hosil qilgan⁸⁰.

Mazkur pasttekislik geologik va geografik adabiyotlarda Uzboy atamasi bilan ma'lum. Uzboy pasttekisligida Qang'qaqir, Tuzqir, Tarimqiya balandliklari joylashib, ularni yer sathidan balandligi 80-100 metr. Amudaryo suvi tarkibidagi loyqalarning cho'kishi Sariqamishbo'yi del'tasini tabiiy-geografik xususiyatlarini hosil qilgan. Sariqamishbo'yi pasttekisligi Ungizi Qoraqumdan shimolda, Ustyurt plotasi, janubiy va janubiy-g'arbiy hududlarni qamrab olgan. Shu tariqa, geografiya fani atamashunosligida Sariqamishbo'yi havzasi o'rin olgan.

Qadimgi Sariqamish del'tasi Amudaryo Tuyamo'yin siqig'idan o'tgandan so'ng biroz shimolroqda, Tuynukli deb ataluvchi daryo kechuv joyi yaqinidan boshlanib, Ungizi Qoraqumgacha keng maydonni egallaydi. Sariqamishbo'yi del'tasi pasttekislikdan iborat bo'lib, g'arbiy tomondan Qoraqum sahrosiga tabiiy tutashib ketgan. Qoraqum sahrosi g'arbiy tomonda Kaspiy dengizi sohiliga ulanib ketadi. Ungizi Qoraqumdan, Sariqamishbo'yi va Ko'hna Urganch yaqinigacha bo'lgan pasttekislik qisman geologik davrning bo'r va asosan o'lchamli davr jinslaridan iborat bo'lib, ularning yuzasi sariq qum tepaliklari bilan qoplangan⁸¹.

Mazkur sarhad yuzasi Ko'hna Urganch yaqinidan Sariqamish botig'i tomon har kilometrda 0,2-0,4 metrga pasayib borishi kuzatiladi. Sariqamishbo'yi pasttekisligi 1mln gektarni tashkil etgan. Pasttekislik sernam va serunum bo'lishida Amudaryoning Davdon va uning shahobchalari bo'lgan Qanhg'adaryo, Tunidaryo va Daryoliq (Ko'hnadaryo)

⁸⁰ Варатов. П. Ўзбекистоннинг табиий географияси. Тошкент, "Ўқитувчи", 1996, - Б. 154-162.

⁸¹ Архангельский. Геологические исследования в низовьях Аму-дарьи. М-Л, 1931, - С. 39; Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т., "Фан", 1959, - Б. 39



irmoqlari faolyati muhim o‘rin tutgan⁸². Geologik adabiyotlar ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi xvalin davriga kelib Xorazm ko‘li Amudaryo oqizib kelgan cho‘kindi jinslar bilan to‘la borishi natijasida uning o‘rnida allyuvial yotqiziqlar bilan to‘lgan unumdor tekislik hosil bo‘lgan⁸³.

Amudaryo so‘l sohilidan g‘arbiy tomonga yo‘nalgan Davdon 300 km, Daryoliq irmoqlari uzunligi 250 km bo‘lgan. Davdon Xonqa va Urganch oralig‘ida, Daryoliq esa Urganch shahridan 18 km shimolda Amudaryodan ajralib chiqib, ular 20-30 km uzoqlikdagi maydonda Sariqamish ko‘liga tengma-teng ravishda yo‘nalgan. Amudaryo suv oqimi barqaror bo‘lmaganligi bois, Davdon, Daryoliq irmoqlari suv oqimi goh-gohida ko‘tarilishi bir necha tarmoqlarni hosil qilgan, lekin ularning harakati doimiy bo‘lmagan. Davdon irmog‘i pasttekislik orqali bir necha shahobchalardan biri ilon Izida Sariqamish ko‘liga yo‘nalgan, u janubiy tomonga ajralgan shahobchalar janubi-g‘arbiy tomonga yo‘nalgan holda, atroflardagi hududlarni sug‘organ.

Daryoliq irmog‘i yo‘nalishida birmuncha farqlanish kuzatiladi, yani u Amudaryoning so‘l sohilidan g‘arbiy tomon ajralib chiqqanidan boshlangan suv yo‘nalishiga Bolxon tog‘lari monelik qilgani uchun, u janubiy tomonga tik tarzda Sariqamish ko‘liga kelib qo‘shilgan. Amudaryo faoliyati davrida Sariqamishbo‘yi pasttekisligida tentirab oqishi natijasida uning aniq hududiy chegarasi tez-tez o‘zgarib turgan, bu esa Davdon, Daryoliq irmoqlarini tez-tez o‘zgarib turishi kuzatiladi (hozirgi vaqtda Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi Madaniyat, Bog‘olon fermer xo‘jaligi hududida istiqomat qilgan aholi o‘rtasida Daryoliq irmog‘i o‘tganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bot-bot uchraydi. Shu bilan birga, Qoraqolpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumani g‘arbiy tomonida joylashgan Qilichhboy sarhadida “Ocha” deb atalgan qishloq mavjud bo‘lib, Daryoliq ikki irmog‘i shu hududdan Sariqamishko‘li tomon ajralib chiqqanligi bois, mahalliy aholi talaffuzida yuqorida qayd qilingan atama doimo ishlatilishiga olib kelgan).

⁸² Андрианов.В.Б. Древние оросительные системы Приаралья. М, “Наука”, 1969, – С. 146; Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой. М, “Наука”, 1960, –С. 147–174.

⁸³ Низовья Амударьи. – С. 21.



To'rtlamchi geologik davr o'rtalarida yer osti tebranishlar va Davdon irmog'i havzasi qalin loyqa qatlamlar yotqizilishi munosabati bilan Kopetdog' va uning atroflari Uzboy, Ungizi Qoraqum atroflari ko'tariladi va shimoliy hududlari nishoblashadi⁸⁴.

Amudaryo so'l sohilida Ko'hna Urganch shahri janubidan Ungizi Qoraqumgacha bo'lgan rang-barang bepoyon Sariqamishbo'yi havzasi pasttekisligida Turkmaniston Respublikasi va Xorazm viloyati asosiy sarhadlari joylashgan. Miloddan avvalgi III mingyilliklarda Uzboyda suv oqimi mavjud bo'lgan bo'lsa II mingyilliklarda Uzboyda suv faoliyati to'xtagan. Amudaryoning Davdon irmog'i va uning Charmanyop, Manqir, Tunidaryo, Daryoliq irmoqlari suv oqimi goh ko'tarilishi va goh pasayishi natijasida allyuvial yotqizilarning cho'kishi bilan keng pasttekislik hosil bo'lgan⁸⁵.

To'rtlamchi davr o'rtasi va oxiriga kelib, Amudaryoning Davdon, Daryoliq irmoqlari faoliyati munosabati bilan rang-barang antropogen landshaft va geografik xususiyatli Sariqamishbo'yi havzasi pasttekisligi yakuniy shakllangan⁸⁶. Oqchadaryo havzasi pasttekisligi manzarasi tasvirini nazarga olib, uni janubiy va shimoliy havzalarga ajratish mumkin. Janubiy Oqchadaryo havzasi yer yuzasi geologik va geografik manzarasi quyidagicha: Yuqorida qayd qilganimizdek, to'rtlamchi davr o'rtalaridan boshlab, Amudaryo suvi Ungizi Qoraqumidan boshlangan bepoyon qumlik pasttekisligi orqali shimoli-g'arbiy tomondagi Xorazm ko'liga shiddat bilan kirib kelishi boshlangan⁸⁷.

Mazkur geologik davrdan boshlab Qoraqum markazi Amudaryoning "Tentirash" maydoniga aylangan⁸⁸. Geologik izlanishlar natijalariga ko'ra, to'rtlamchi davr o'rtalarida Amudaryo suvi Oqchadaryo irmog'ini to'ldirgan. To'rtlamchi davr o'rtalaridan keyin Amudaryoning Davdon irmog'i asosiy suvni qamrab olib, Sariqamish ko'liga kelishi munosabati bilan Oqchadaryo irmog'i suv oqimi keskin kamaygan. Mazkur tarixiy davrda Oqchadaryo suvi Sulton Uvays tog'ining sharqiy tomonidan yo'nalib Qizilqum sahrosiga

⁸⁴ Баратов. П. Ўзбекистоннинг табиий географияси. Тошкент, "Ўқитувчи", 1996, – Б. 80–82.

⁸⁵ Толстов С.П, Кесь А.С. История первобытных поселений на протоках древних дельт Амудары и Сырдары // Сборник статей для XVIII международного географического конгресса // М-Л, 1956, – С. 270–271.

⁸⁶ Низовья Амударьи, Сарикамыш, Узбой // История формирования заселения // МХЭ, №3 // М, "Наука", 1960, – С. 17.

⁸⁷ Баратов П, Маматкулов М, А.Рафиқов. Ўрта Осиёнинг табиий географияси. Тошкент, "Ўқитувчи", 2002, – Б. 162, жадвал. II.

⁸⁸ Низовья Амударьи, Сарикамыш, Узбой // История формирования и заселения // М, "Наука", 1960, – С. 20.



chiqqanidan keyin mavjud boʻlgan yoʻlaklardan birinchisi orqali Xorazm koʻli shimoli-sharqiy burchagiga, ikkinchisi Beltov qirlari bilan chegaralangan holda, shimoliy-sharqiy tomondan Orol botigʻiga kelgan⁸⁹.

Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklar oxiriga kelib, Amudaryo Davdon irmogʻi suvi goh-gohida kelishi munosabati bilan janubiy Oqchadaryo irmogʻining suvga toʻyinishi yuqori boʻlganligi uchun uning sohillari atrofida koʻpsonli botqoqliklar, koʻl va suv havzalari hosil boʻlgan. Tadqiqotchi A.S. Kes tomonidan olib borilgan geologik tadqiqotlar natijalariga koʻra, bundan 25-22 ming yillarda Amudaryo suvi sathining koʻtarilishi sohil koʻtarmasidan oshib chiqishi, tevarak-atroflarda hududiy chegarasi belgilanmagan massivlarni vujudga keltirgan⁹⁰. A.S. Kes tadqiqotlari natijasiga koʻra, havzaning vujudga kelishi toʻrtlamchi davr oʻrtalaridan boshlangan. Mazkur tarixiy davrdan boshlab, Amudaryoning oʻng sohilidagi Shoʻraxon yaqinidan boshlangan Oqchadaryo irmogʻi sharqiy tomondagi Sulton Uvays togʻi sharqidagi balandligi 20-30 m balandlikdagi Qizilqum oʻrtasidagi yoʻlak shimol tomonga tik tarzda uchburchak shaklida (uning uzunligi 170 km) bir necha tarmoqlar suvlari Orol dengizi quyilgan. Shu tariqa, Shoʻraxondan tortib Sulton Uvays togʻigacha boʻlgan sarhad janubiy Oqchadaryo havzasi nomida tarixiy-geografik atama vujudga kelgan. Havzaning sharqiy sarhadlari Qizilqum qumtepalik barhanlariga tutashadi.

Janubiy Oqchadaryo irmogʻi bir necha shahobchalarga ajralgan holda, shimol tomon yoʻnalgan. Gʻarbiy Oqchadaryo shahobchasi Sulton Uvays togʻi janubidan aylanib, shimoli-sharqiy sarhadda harakatda boʻlgan sharqiy Oqchadaryo bilan birlashgan holda, Qizilqumning shimol tomon yorib oʻtib, uzunligi 75 km Oqchadaryo yoʻlagini hosil qilgan. Amudaryoning Oqchadaryo irmogʻi suvi janubiy Oqchadaryoda har yili olib keladigan loyqalar oʻrtacha qalinlikdagi 80-150 metrli pasttekislikni hosil qilgan. Quyi Amudaryo havzasi hududi sayoz chuqurliklar, balandlik va jarliklar, togʻ tizmalari, quruq oʻzanlar va koʻllardan iborat boʻlib, ularga ulanib ketgan qum tepaliklarning balandligi turlicha. Oʻrta va quyi golosen davridan boshlab, miloddan avvalgi II ming yilliklargacha Oqchadaryo,

⁸⁹ Oʻsha asar. 1960, - С. 66.

⁹⁰ Кес А.С. Аральское море голоцене // Археология и этнография Средней Азии // . Москва, "Наука", 1979, - С. 19.



Davdon irmoqlarining to‘yinish darajasi yuqori bo‘lganligi bois, Amudaryo suvi Orol dengiziga kam miqdorda kelib turgan.

Tadqiqotchi A.S. Kes fikricha, miloddan avvalgi 2,5-1 ming yilliklar o‘rtalariga kelib, Amudaryoning Davdon va Daryoliq irmoqlari suvlari Sariqamish botig‘iga onda-sonda kelib turishi Oqchadaryo irmog‘i suvi ta‘minoti yuqori darajada bo‘lgan⁹¹. Mazkur tarixiy davrda Amudaryo suv sathi ko‘tarilishi munosabati bilan Yonboshqalaning shimoliy-sharqiy tomonidagi mavjud bo‘lgan qum barhanlari o‘rtasidagi yo‘lakka shiddat bilan yorib kirishi munosabati bilan Suvyorgan atamasida ko‘p sonli ko‘llar tizimi vujudga kelgan.

Toshsaqa qisig‘idan Orol dengizigacha bo‘lgan hududlar daryo va uning irmoqlari suvlaridagi loyqa qatlamlarining cho‘kishi natijasida (qum va gil) tashkil topgan pasttekislikning dengiz sathidan balandligi 100 metr. Toshsaqa sarhadining sohili daryo suv sathidan 8-10 metr balandlikda bo‘lgani holda, o‘ng sohili hududlari past bo‘lib, atrofi yerlardan balandligi 1-3 metr bo‘lgan. Toshsaqaning so‘l sohili daryo sathidan 8-10 metr baland bo‘lib, yerning geologik tuzilishi bir necha qatlamdan iboratligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Havza hududi aksariyat qismini asosan qoq pasttekislikni tashkil qilib, sernam va serunum xususiyati bilan asosiy dehqonchilik zonasi hisoblanadi⁹².

Geologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, to‘rtlamchi davr oxirida yuqoridan kelgan Sirdaryo suvi shimoli-g‘arbiy tomonga yo‘nalishi jarayonida Qizilqum tekisligida Amudaryo singari jiddiy “tentiramasdan” (Amudaryodan oldin) Orol dengizi tomon yo‘nalgan. Sirdaryo Amudaryodan farq qilib, o‘ng tomonga bironta tarmoq ajratmagan. Sirdaryoga o‘ng tomondan Sarisuv daryosi quyilgan. Sirdaryo o‘ng sohilidan irmoqlar ajralib chiqishi kuzatilmaydi. Sirdaryo so‘l sohilidan irmoqlar ajralib chiqishi kuzatilmaydi. Sirdaryo so‘l sohilidan shimoli-g‘arbiy tomonga Jonadaryo, Quvondaryo, Eskidaryoliq irmoqlari suvlari Orol dengiziga kelishi munosabati bilan shimoli-sharqiy orol bo‘yi havzasi shakllandi⁹³.

⁹¹ Kes A.C. Аральское море в голосе // Археология и этнография Средней Азии // М, Наука. 1979, – С. 20.

⁹² Андрианов. Б.И. Древние оросительные системы Приаралья. М., “Наука”, 1969.

⁹³ Kes A.C. Природные факторы, обуславливающие расселение древнего человека в пустыне Средней Азии // КСИЭ, Вып. XXX // М, “Наука”, 1958, – С. 172.



Miloddan avvalgi birinchi ming yillik birinchi yarmi ohirida Amudaryodan Taxiatosh yaqinidan ajralib chiqqan bir necha tarmoqlari suvlari shimolga tomon yoʻnalishi natijasida shimoliy-gʻarbiy orol boʻyi tarkib topgan. Nukus shahri yaqinidan boshlangan Amudaryoning Oqdaryo, Koʻxnadaryo, Toldiqdaryo, Erkindaryo, Qozoqdaryo kabi shahobchalari shimol tomon yoʻnalishi natijasida gʻarbiy Orolboʻyi vujudga kelgan. Shu tariqa, 50 km maydonni egallagan Orolboʻyi havzasi tarkib topgan. B.I. Vaynberg fikricha, miloddan avvalgi I ming yillik ikkinchi yarmida Amudaryo asosiy suv miqdori sharqiy hududda tarmoqlarga ajralib Orolga yoʻnalgan⁹⁴. Orol dengizi maydoni hajmi 67,34 ming kv. km, chuqurligi 69 metr, oʻrtacha chuqurligi 16,1 metr⁹⁵. Orol dengizini vujudga kelish tarixiga oid turli fikr-mulohazalar mavjud.

L.S. Berg, D.A. Arxangelskiy, B.M. Georgiyevskiy Orol dengizi joylashgan sarhadda yer osti harakatlari taʼsirida choʻkindi natijasida koʻl vujudga kelgan degan fikrlarni ilgari surganlar. I.P. Gerasimov, Yu. A. Skvordsov gʻarbiy Sibir va Chu daryolari suvlari Orol dengizi botigʻini hosil qilgan degan xulosaga kelganlar. A.S.Kes bundan 100 ming yil avval Orol dengizi vujudga kelgan deydi. P.I. Chalov, K.N. Merkulova, T.V. Tuzova 130-150 ming yillar avval hosil boʻlgan degan fikrga kelganlar. Oʻzbek geograflari P. Baratov, M. Mamatqulov, A. Rafiqovlar xulosasiga koʻra, toʻrtlamchi davrga qadar Orol dengizi oʻnida katta suv havzasi boʻlgan. Bu havza janubi-gʻarbida Sariqamish botigʻini oʻziga qoʻshib, Kaspiy dengizi sohiliga tutashib ketgan.

Xorazm geografiya fani tadqiqotchisi R. Qurboniyozov Quyi Amudaryo va uning hududiy tizimini hosil qilgan Sariqmishboʻyi, Uzboy va Orolboʻyi sarhaddari yuzasining geologik tuzilishini toʻrt tipga ajratgan. Qadimgi kristalli jinslardan tashkil topgan sarhadlar (Yumurtogʻ, Qubatoq, Sulton Uvays togʻi va Orolboʻyi hududlari). Amudaryo oʻng sohili sarhaddari esa boʻr yotqiziqlaridan hosil boʻlgan.

Tuyamoʻyin qisnogʻi, Zanguzi Qoraqum atroflari poleogen va neogen geologik davrlari jinslaridan iborat boʻlgan⁹⁶. Geograf olim P.Baratov Sariqamishboʻyi, Uzboy va Quyi Amudaryo sarhadlarini uchta tabiiy geografik zonaga taqsimlagan. Yaʼni, Chimboy-

⁹⁴ Вайнберг Б. И. Этногеография Турана в древности. – М, “Наука”, 1999, – С. 22.

⁹⁵ Баратов П, Маматкулов М, А.Рафиков. Ўрта Осиёнинг табиий географияси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 2002, б.119, 283–284.

⁹⁶ Қурбонниёзов Р. Хоразм географияси. – Урганч, 1996, – В. 7.



Qo'ng'iro't, Beltov va Xorazm tabiiy- geografik zonalari⁹⁷. Albatta, mazkur tabiiy-geografik regionlar yer yuzasi tuzilishi rang-barangligi jihatidan farqlanishi kuzatiladi. Xorazm va unga tutashib ketgan Sariqamish, Uzboy sarhadlari qadimgi davr pasttekisligida madaniy xo'jalik massivlarining vujudga kelishi shakllanishi rivojlanish jarayoni kechganda. Zarafshon vohasi qadimiy Turonning markazida bo'lib voha Turkiston va Zarafshon tizmasi oralig'ida joylashgan.

Zarafshon vohasi sobiq sovet hokimiyati yillarida nashr etilgan tarixiy va geografik adabiyotlarda markaziy, janubiy va g'arbiy Zarafshonga, yoki markaziy, janubiy va g'arbiy So'g'dga ajratilgan. Mazkur hududlarning yer yuzasi bir-biridan farq qiladi. Markaziy va janubiy hududlar osmon o'par tog'lari bilan g'arbiy So'g'ddan ajralib turadi. Markaziy So'g'dning g'arbiy qismi, janubiy So'g'dning g'arbiy qismi g'arbiy So'g'd pasttekisligiga qo'shilib ketadi. Huddi shu sarhadlar dehqonchilik uchun qulay bo'lgan. Janubiy So'g'ddan Turkiston tog'lari orqali Surxondaryo ajralib turadi. Boysun, Bandixon, Sariosiyo, Jarqo'rg'on sarhadlari tog'lar bilan Tojikistondan ajralib turadi. Vohaning janubi-g'arbiy, shimoliy hududlari dehqonchilikka qulay hisoblanadi.

Farg'ona vodiysi esa to'rt tomoni tog'lar bilan o'rab olinishi bilan Turonning boshqa viloyatlaridan alohida ajralib turadi. Sirdaryo, Jizzax va Toshkent viloyatlari geografik hususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi, ularning ham bir tomoni tog'lar bilan o'ralgan. Shu jihatga mos geografik muhit, iqlim sharoit vujudga kelgan. Janubiy Qozog'iston hududi pasttekislikdan iborat, Qirg'iziston hududi ham bir tomoni tog'lar bilan o'ralgan Tojikiston va Turkmaniston hududlari ham geografik hususiyatlarni hosil qilgan. Masalan Tojikiston Respublikasi tog'li o'lka. Tyanshan, Hisor-Oloy va Pomir tizimini egallagan tog'lar asosiy sarhadning 93% ini tashkil qiladi. Tog'lar respublika geografik hususiyati va xo'jalik yo'nalishlarini belgilab bergan.

Turkmaniston Respublikasi joylashgan hudud o'ziga hos geografik hususiyatlarga ega. Bu hususiyatlar aholi maskanlarida, ular tomonidan barpo qilingan shaharlarda nomoyon bo'lgan. Respublikaning yer yuzasi asosan pasttekislikdir. Uning 4/5 qismi Turon pasttekisligini tashkil qiladi. Uning asosiy qismlarini Qaroqchi cho'li tashkil qilgan.

⁹⁷ Баратов П. Ўзбекистоннинг табиий географияси. Тошкент, "Ўқитувчи", 1996, с. 161-162.



Respublika tog‘li emas asosiy tog‘lari Kopetdog‘ kichik va katta Balhondir. Uning hududida dehqonchilikka qulay vohalari mavjud. Mari, Toshhovuz, Ilonli, Ko‘hna Urganch, Darg‘on va Chorjo‘y atroflari sarhadlarida aholi xo‘jalik yo‘nalishlarini olib borishga imkoniyat bor.

Amudaryo, Murg‘ob, Tajan va Atrek asosiy daryolari hisoblanadi. Amudaryo suv bilan taminlashida yetakchi o‘rinda turadi. Qoraqum cho‘li sarhadni ikki qismga ajratgan. Umuman hududlar bo‘yicha O‘rta Osiyo pasttekisligi tabiiy regionlarga bo‘lingan. Qirg‘iziston, janubiy Qozog‘iston, Tojikiston, O‘zbekiston sarhadlari tabiiy geografik hududlarga bo‘lingan. Bunda tuproq tuzilishi sabab bo‘lgan. Har bir region geografik hususiyatlarga ega bo‘lgan. Respublikalar iqlimi turlicha. O‘rta Osiyo shimolida iqlim janub tomonidan keskin farq qiladi. Turli etnik guruhlar mavjud bo‘lib, ularning tarixi ilk tosh davriga borib taqaladi. (Tojikiston, O‘zbekiston) Turkmanistonda quyi poleolitdan odamlar istiqomat qilishni boshlaganlar. Tojikiston hududida shimoliy Hisor-Oloy (Zarafshon), janubi g‘arbiy, markaziy va Pomir tabiiy regionlariga bo‘lingan. Turkmanistonda 10 ta tabiiy rayon mavjud bo‘lgan. Katta va kichik Bolhon, Kopetdog‘, Poroliq, Ko‘xitang, Krasnovodsk va orqa Uzboy tog‘ va tog‘ oldi regionlari. Qirli tekisliklar: Ustyurt platosi, Ungiz Qoraqum cho‘li, pasttekisliklar: Kaspiy bo‘yi, past Qoraqum cho‘li, Amudaryo, Murg‘ob va Tajan daryolari. O‘zbekistonda Farg‘ona, Zarafshon, janubiy Ustyurt, quyi Amudaryo, Surxon regionlari mavjud. Yuqorida qayd qilingan tabiiy regionlar geografik hususiyatga ega bo‘lgan.

Shunday qilib, yuqorida qayd qilingan ma‘lumotlar asosida quyidagi yakuniy xulosaga kelish mumkin.

- Buyuk Tetis dengizi chekingandan keyin keng pasttekislik vujudga kelgan.
- Yer osti tektonik harakatlari natijasida osmon o‘par va o‘rtacha balandlikdagi tog‘lar, balandliklar hosil bo‘lgan.
- O‘rta Osiyo daryolari faoliyatlari natijasida Turon pasttekisligi rang-barangligi tashkil topgan.

Daryo havzalari va tog‘ oldida hosil bo‘lgan vodiylar madaniy-xo‘jalik massivlarining vujudga kelishiga olib kelgan. Tojikistonda Bishkent vodiysi, Kobadian daryosi havzasi, Qirg‘izistonda O‘sh, O‘zgan tabiiy geografik regionlari, O‘zbekistonda



Surxon, Zarafshon, Toshkent quyi Amudaryo, Turkmanistonda Murg'ob, Tajan, Atrek daryolari havzasining iqlim sharoiti dehqonchilikka qulay bo'lib, ibtidoiy odamlarning kelib o'rnashishi uchun tayyor holda bo'lgan edi.

